

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2026

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марксовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайкулов Тулқин Дўстобоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

**Гоффоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Қариши давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмутаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Хакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
*Масъул котиб*

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнуэр Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Ахмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Абдор Анварович**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
*Масъул котиб*

**Исоков Бахтиёр Робиддинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хасанова Нодира Ибрагимовна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти, Денов  
тадбиркорлик ва педагогика институти

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

**1. Надира Махкамова**

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЎРНАТИЛГАНИДАН КЕЙИН ТУРКИСТОНДА ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ ТУЗИЛМАСИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ.....5

**2. Ollabergan Allaberganov**

1945–1960-YILLARDA XORAZM VILOYATI QISHLOQLARIDA MAKTABGACHA TARBIYA TIZIMIDAGI MUAMMO VA ZIDDIYATLAR.....13

**3. Zaxra Mirzayeva**

K.P. FON KAUFMAN MA’MURIYATINING ILK KO‘RGAZMA TASHABBUSLARI.....17

**4. Akmal Mengliboyev**

SOVET HOKIMIYATI O‘RNATILISHI ARAFASIDAGI JANUBI-SHARQIY BUXORODA VAZIYAT.....23

**5. Xushnudbek Mamadaliev**

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSI SHAHRLARIDAGI DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR.....28

**6. Xosiyat Nafiddinova**

MDH DAVLATLARIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI.....35

**7. Бекзод Пайзуллаев**

БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ҚЎҚОН ХОНЛИГИНИНГ ЖИЗЗАХ, ЎРАТЕПА ВА ХЎЖАНД УЧУН КУРАШЛАРИ ТАРИХИ БЎЙИЧА МУЛОҲАЗАЛАР.....39

**8. Mo‘minjon Salayev**

BAQTRIYA HUUJATLARIDA AYOLLARNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY MAQOMI (IV – VIII ASRLAR).....46

**9. Nafisa Hayotova**

БУХОРО ШАҲРИ МЕЪМОРИЙ МУҲИТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР: СИЁСИЙ ҲОКИМИЯТ ВА МЕЪМОРИЙ УСЛУБ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК.....55

**10. Sevara Elmurodova**


O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI.....64

**11. Ziyodulla Eshmirzayev**

TO‘G‘ONSIZ SUG‘ORISHDAN MUHANDISLIK NAZORATIGA: XORAZMVOHASI IRRIGATSIYA TIZIMIDAGI BURILISH (1946–1991-YILLAR).....75

**12. Абзамжон Юсупов**

ФАРҶОНА ВОДИЙСИ ЖАДИДЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ.....81



**Akmal Xolto'rayevich Mengliboyev,**  
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute  
dotsent, PhD

## SOVET HOKIMIYATI O'RNATILISHI ARAFASIDAGI JANUBI-SHARQIY BUXORODA VAZIYAT

**For citation:** Akmal Mengliboev. THE SITUATION IN SOUTHEASTERN BUKHARA ON THE EVE OF THE ESTABLISHMENT OF SOVIET POWER. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 8.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22009957>

### ANNOTATSIYA

Buxoro amirligi sovet rejimi o'rnatilguniga qadar o'rta asrchilik an'analari tayangan holda boshqariladigan davlat bo'lib, dunyoning ilg'or davlatlariga qaraganda ancha qoloq edi. Bu davrda janubiy sharqiy Buxorodagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat xaqida gap boradi. Shunday bir vaziyatda amirga qarshi kuchlar xam paydo bo'ladi va bu vaziyatdan sovet xukumatining o'z rejalarini amalga oshirish uchun olib borgan siyosatini ko'rishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** mang'it, "hokim", "mir" yoki "sho", "mirshab", Mufti, Mirzalar, Mulla azimlar, Devonbegi, Miroxurboshi, Mahramlar, Quyi xizmatchilar. Sayyid Abdulahadxon, Pattakesar, Muvaqqat hukumat, Yosh buxoroliklar.

**Акмал Менглибоев,**

Преподаватель Института предпринимательства и  
педагогике Денова доктор философии (PhD) по истории

### АННОТАЦИЯ

До установления советской власти Бухарский эмират был государством, управляемым на основе средневековых традиций и значительно отстававшим от передовых стран мира. В данном исследовании рассматривается общественно-политическая ситуация в юго-восточной части Бухары в тот период. Автор анализирует возникновение сил, оппозиционных эмиру, и освещает политику советского правительства, направленную на реализацию собственной программы действий в сложившихся условиях.

**Ключевые слова:** Мангит, «хаким», «мир» или «шах», «миршаб», муфтий, мирзы, мулла Азимс, Диванбеги, Мировурбоши, Махрамы, чиновники низшего ранга. Сайид Абдулахад-хан, Паттакасар, Временное правительство, младобухарцы.

**Akmal Mengliboev,**

Teacher of Denov Institute of Entrepreneurship and  
Pedagogy Doctor of Philosophy (PhD) in History

## THE SITUATION IN SOUTHEASTERN BUKHARA ON THE EVE OF THE ESTABLISHMENT OF SOVIET POWER



**ABSTRACT**

Prior to the establishment of the Soviet regime, the Emirate of Bukhara was a state governed by medieval traditions and was significantly backward compared to the world's advanced nations. This study examines the socio-political situation in southeastern Bukhara during that period. It highlights the emergence of forces opposed to the Emir and illustrates the policies pursued by the Soviet government to implement its own agenda amidst these circumstances.

**Index Terms:** Manghit, "hakim", "mir" or "shah", "mirshab", Mufti, Mirzas, Mullah Azims, Divanbegi, Mirokhurboshi, Mahrams, lower-ranking officials. Sayyid Abdulahad Khan, Pattakesar, Provisional Government, Young Bukharans.

**1. Dolzarbligi:**

Mazkur mavzu O'zbekiston tarixining murakkab va ziddiyatli davrlaridan birini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, XX asr boshlarida yuz bergan siyosiy jarayonlar, xususan Sovet hokimiyati o'rnatilishi arafasida Janubi-Sharqiy Buxorodagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatni o'rganish O'zbekiston tarixining muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Ushbu davr mintaqada davlat boshqaruvi tizimi, mahalliy hokimiyat, ijtimoiy munosabatlar hamda tashqi siyosiy omillarning o'zaro ta'siri kuchaygan murakkab tarixiy bosqichni tashkil etadi. Ayniqsa, Buxoro amirligining ichki siyosiy inqirozi, mahalliy qarshilik harakatlari va Sovet Rossiyasining mintaqadagi siyosati Janubi-Sharqiy Buxoroda yuz bergan voqealarning mazmun-mohiyatini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuni tadqiq etish nafaqat Sovet hokimiyatining Buxoro hududida qaror topish jarayonini, balki ushbu jarayonda mahalliy aholi, siyosiy kuchlar va amirlik boshqaruvining tutgan o'rnini xolis baholash imkonini beradi. Shuningdek, tarixiy manbalar asosida voqealarni ilmiy tahlil qilish mustamlakachilik siyosati, siyosiy transformatsiyalar hamda mintaqaviy taraqqiyot jarayonlarini chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi.

**2. Metodlar:** Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ob'yektivlik, ilmiylik, qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, statistik tadqiqot, materilallrni tanlash va tasniflash tamoyillari aosisda yoritilgan.

**3. Tadqiqot natijalari:**

XX asr boshlarida Buxoro amirligi aholisi 2,5-3 mln kishini tashkil etgan. Shundan 10% shaharlik bo'lgan. 1920 yilgi holatga ko'ra, Buxoro aholisi 3,5 million, maydoni 225000 km<sup>2</sup> bo'lgan. Aholining asosiy qismi o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq, tojik, yahudiy va arablardan iborat edi. Sharqiy Buxoroning eng yirik shaharlari – Ko'lob (aholisi 25 ming kishi), Hisor (8 ming), Denov (6 ming), Qo'rg'ontepa (4 ming), Qalai-Xumb (Darvoz bekligining markazi – 3 ming), Qabodiyon (1 ming kishi) bo'lgan.

Qayd etish joizki, 1888 yilda Buxoro amirligi bilan tuzilgan bitimga ko'ra, Rossiyaning ichki gubernyalaridan ko'chib keluvchi rus aholisiga Yangi Buxoro, Chorjo'y, Karkida, 1892 yildan esa Pattakesarda ham o'rnashib, ko'chmas mulk sotib olishlariga ruxsat berilgan edi. 1893 yilning 15 yanvarida Buxoro amiri tomonidan Pattakesar qishlog'i hududi Rossiya imperatoriga harbiy istehkom qurish uchun berildi. Shundan keyin bu yerga 7-chegara harbiy okrugining harbiy qismlarini olib kelish boshlandi. Harbiy okrug qarorgohi Ashxabod shahrida edi. Pattakesar qishlog'i negizida Termiz harbiy istehkomi vujudga keltiriladi.

1894 yil 12 dekabrda Termizga 31-Amudaryo chegara brigadasi kelib joylashdi. U hududdagi eng yirik harbiy qism edi. Bundan tashqari, Termizda 54-kazak drujinasi, Toshkent drujinasi, 9-Turkiston polki, zahiradagi 6-Sibir o'qchi polki, qal'a artilleriyasi rotasi ham joylashgan edi. Pattakesar qishlog'i 31-Amudaryo chegara brigadasi qarorgohi qilib belgilandi. 1900 yilda bu yerga 2-Orenburg polki va Turkiston batalyoni ham keltirildi.

Chor hukumati Termizda vujudga kelayotgan yangi harbiy manzilgohning strategik ahamiyatini to'g'ri tushunib, bu yerda qo'rg'on qurishga kirishdi. Natijada Termizning o'zida ikkita qo'rg'on bunyod etildi. Birinchisi 1894-1900 yillarda rus aholisi yashaydigan punktni qo'riqlash maqsadida qurilgan qo'rg'on bo'lsa, ikkinchisi undan shimolda qurilgan harbiy qo'rg'on edi. Ikkinchi qo'rg'onda harbiy garnizon joylashtirildi. Inqilob arafasida Termiz aholisining 8 mingini

kelgindilar tashkil etib, ular shaharning shimoliy va g'arbiy qismlarida, mahalliy aholi esa janubiy va sharqiy qismidagi Pattakesar qishlog'ida yashar edi. Ruslar yashaydigan yerlar Buxoro amirligi qoshidagi Siyosiy agentlik tomonidan, Pattakesar qishlog'idagi tub aholi Buxoro amirligi qonunlari asosida bekcha tomonidan boshqarilgan. Bekcha – amirlik davridagi qishloq oqsoqoli lavozimiga to'g'ri kelgan. 1894-1920 yillarda ushbu lavozimda Imomqul bekcha, Muhammad Murod va oxirida Xolmurod Pirnazarov ishlagan. Harbiy qo'rg'onda joylashgan garnizon boshlig'iga shahardagi barcha harbiy qismlar bo'ysunar va u chiqargan qonunlarga to'la amal qilardi. Shunday qilib, Termizda inqilob arafasida uch hokim va uch qonun hukm surardi.

Buxoro davlatida aniq belgilangan davlat budjeti va soliqlar bo'lmaganligidan, aholi 50 dan ortiq soliqni to'lashga majbur etilgan. Asosiy soliqlar – zakot, xiroj, tanobona, qo'sh puli, aminona, boj va boshqa mayda soliqlar ham bor ediki, ular dehqonlarning tinkasini quritar edi. Chunonchi, dehqon oilasida bola tug'ilganda, qizini uzatganda, sigir, qo'y yoki echki sotib olganda ham soliq to'lashi lozim edi. Aholi soliqlarning ko'pligidan aziyat chekar, bu esa tez-tez qo'zg'olonlar ko'tarilishiga olib kelar edi.

Bekliklarning amir xazinasiga jo'nata digan o'lponi 8 million rubldan oshiqroq edi. Jumladan, Boysun bekligi 150000, SHerobod bekligi ham 150000 ming, Denov bekligi 200000 ming, Hisor bekligi 600000 rubldan to'lashgan. Bundan tashqari, barcha beklklarga qo'yilgan zakotning miqdori 50-100 ming rubldan iborat bo'lgan. Buxoro shahrining o'zidan 500 ming, Qarshi shahridan 300 ming, Shahrisabz shahridan 200 ming rubldan zakot yig'ilgan. Jami yillik yig'iladigan zakot miqdori 3 million rubldan ortiq edi. Bojxona to'lovlari va boshqa yig'imglar natijasida amirlik xazinasiga 14 million rubl kelib tushar edi. Yana 4 million rubl beklklardagi amaldorlar kissasiga tushgan. Lekin Buxoro hukumati Rossiya imperiyasiga beradigan hisobotlarida, o'z xazinasiga rasmiy ravishda yiliga 2 1/2 million rubl kirim qilinganligi, uning 1 1/2 millioni qo'shinga, amir xarajatlarining o'ziga 900000 rubl, ruhoniylarni saqlashga 100 ming rubl chiqim qilinganligi ko'rsatilar edi. Qolgan mablag' esa, amirning shaxsiy ehtiyojlari – imperator va uning oila a'zolari, rus hukumati, Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyatiga qimmatbaho sovg'alar berish, Moskva, Peterburg, Qrimda o'ziga saroylar qurdirish, kattagina haramni boqish va shu kabilarga ishlatilar edi.

Shu bilan birga, jahonda yuz berayotgan o'zgarishlar amirlikda ham islohot o'tkazish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Buxoro amiri Sayyid Abdulahadxon (1886-1910) mamlakatdagi vaziyatni yaxshilash uchun bir qator islohotlar o'tkazdi. Jumladan, poraxo'r amaldorlardan ayrimlarini ishdan chetlashtirdi. Qul savdosi, bachchavozlik, nashavandlik, qatl va tan jazolari rasman ta'qiqlandi. Amirlik shaharlarida aholi soni ortib, savdo-sotiq va sanoatning rivojlanishi uchun keng yo'l ochib berildi. Mamlakat shaharlarida savdo-sanoat korxonalari ko'plab qurildi.

Rossiya markazidagi siyosiy jarayonlar o'z navbatida Surxon vohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1917 yil 10 martida Termiz garnizonining barcha harbiy qismlarida mitinglar bo'lib o'tdi. 1917 yilning 13 martida Termiz garnizoni zobit va askar deputatlarining qo'shma yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Termiz-Pattakesar qo'mitasi tuzilganligi e'lon qilindi. 1917 yilning 15 martida Termiz garnizoni zobit va askar deputatlari kengashining ikkinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Termiz-Pattakesar harbiy qo'mitasining vazifalari belgilab olindi. Qo'mitaning doimiy ish joyi sifatida 546-Qozon drujinasining binosi etib belgilandi. Aprel oyi oxirida harbiy qo'mitaning ishi askar va ishchi deputatlari Soveti ixtiyoriga o'tdi.

Rossiyada bo'layotgan voqealardan Yosh buxoroliklar ham foydalanib qolmoqchi bo'ldilar. 1917 yil 12 martida Rossiya Muvaqqat hukumatining Yangi Buxoro(Kogon)dagi ijroqo'mi saylanadi. Yosh buxoroliklar Muvaqqat hukumatga murojaat qilib, amirni islohot o'tkazishga ko'ndirishni so'raydilar. 1917 yil 15 martda Yosh buxoroliklar Markaziy Qo'mitasiga saylov bo'lib o'tib, unda Abduvohid Burhonov rais, Fitrat kotib, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev xazinachi etib saylandilar. Shu davrning o'zida joylarda Yosh buxoroliklarning 50 dan ortiq mahalliy tashkiloti ish olib borar edi.

Muvaqqat hukumat va Yosh buxoroliklar ta'sirida Amir Olimxon islohotlar o'tkazishga rozilik berdi. 1917 yil 7 aprelda amir saroyida aholining turli qatlamlari ishtirokida bo'lib o'tgan majlisda Sayyid Olimxon manifesti e'lon qilindi. Garchi manifestda va'da qilingan islohotlar amir

hokimiyati asoslariga teginmagan bo'lsada, mamlakatdagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. 1917 yil 8 aprelda Yosh buxoroliklarning Fayzulla Xo'jayev boshchilik qilgan guruhi islohotlarni yanada chuqurlashtirishni talab qilib, namoyishga chiqdilar. Biroq bu namoyish amir kuchlari tomonidan bostirildi. Jami 30 nafar kishi qamoqqa olindi. Mirbobo va Sadriddin Ayniyga 75, Mirza Nazrulloning boshi va orqasiga 150 darradan urganlar.

Hujjatlarning guvohlik berishicha, 1917 yilning kuziga kelib Surxon vohasida aholining hokimiyatni sovetlarga berilishini talab qiluvchi faol chiqishlari kuzatilmagan. Aksincha, joylardan kelib turgan xabarlar va telegrammalarda Muvaqqat hukumatni qo'llab-quvvatlash haqida gapirilar, bolsheviklar va boshqa ekstremistlarning hokimiyatni Sovetlarga berish haqidagi talablari fosh etilar, mamlakat taqdirini hal qiladigan Ta'sis majlisini chaqirish g'oyasi ma'qullanardi.

1917 yil 25-26 oktabrda (yangi sana bilan 7-8 noyabrda) Muvaqqat hukumat bolsheviklar tomonidan qurol kuchi yordamida ag'darildi. Rossiyada V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar partiyasi hokimiyat tepasiga keldi. Mamlakatda sovet rejimi o'rnatildi.

1917 yilning 1 noyabrda, yangi hisob bilan 13 noyabrda Toshkentda qurolli to'ntarish yo'li bilan hokimiyatni qo'lga olgan bolsheviklar joylarga: «Butun hokimiyatni sovetlar qo'llariga oldi. Hokimiyatni o'z qo'llaringizga olingiz!» degan mazmundagi telegrammalar yo'llashadi. O'sha kunning o'zidayoq Termiz Soveti Toshkentga quyidagi mazmundagi telegramma jo'natdi: «Termiz Soveti bizning o'rtoqlarimizni otishga hukm qilgan, qamoqqa olgan va demokratiyaga qarshi turuvchilarni qurollantirishga intilgan general Korovichenkoga norozilik bildiradi. Mahalliy sharoitni hisobga olib, Termiz-Pattakesar Soveti nazorat qilish huquqini o'z qo'lga oladi va inqilob huquqlarini faol himoya qilishga doim tayyor turadi».

Telegrammada bildirilgan so'zlar amaliy ishlar bilan ham mustahkamlandi. Bolsheviklar va ularga ergashgan rus ishchilari 31 oktabrdan 1 noyabrga o'tar kechasi (yangi sana bilan 13-14 noyabr) Termizdagi Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi vakillarini qamoqqa oldilar. Shaharning rus aholisi qismida hokimiyat Preoblitskiy boshchiligidagi Sovetlar qo'lga o'tadi. 1917 yil 2-5 dekabrda Termizda ishchi, soldat va dehqonlar syezdi bo'lib o'tadi va unda hokimiyat Sovetlar qo'lga o'tganligi e'lon qilinadi.

Demak, Buxoro amirligi, shu jumladan, Termizdagi inqilobiy voqealarga tub aholi vakillari qatnashmagan, qolaversa, shahardagi rus aholisi ham qo'lga qurol olib, inqilob qilmagan edi.

Hokimiyat Termiz-Pattakesar shahar deputatlar Soveti qo'lga o'tishi bilan ag'darilgan Muvaqqat hukumatning barcha organlari tugatilib, o'rniga sovet boshqaruv tizimi va uning jazo organlari tuziladi. Bu tasodifiy emasdi. Zero bolsheviklar o'zlari bilan kelishmaydigan kuchlar ustidan zo'rlik ishlatgandagina saqlanib qolishi mumkin edi.

#### **4. Xulosalar:**

Xulosa qilib aytganda, Sovet hokimiyati o'rnatilishi arafasida Janubi-Sharqiy Buxoroda murakkab siyosiy va ijtimoiy vaziyat hukm surgan. Buxoro amirligida mavjud ichki ziddiyatlar, boshqaruv tizimidagi muammolar, iqtisodiy qiyinchiliklar va aholi noroziligining kuchayishi siyosiy beqarorlikni yanada chuqurlashtirdi. Mazkur vaziyat Sovet Rossiyasiga mintaqada o'z siyosiy ta'sirini kuchaytirish va o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Janubi-Sharqiy Buxoroda yuz bergan voqealar mintaqqa tarixida tub burilish yasab, amirlik tuzumining tugatilishi va yangi sovet boshqaruv tizimining shakllanishiga zamin yaratdi. Shu bois mazkur davrni tarixiy manbalar asosida xolis va ilmiy yondashuv bilan o'rganish O'zbekiston tarixining muhim sahifalarini yanada to'liq yoritish hamda tarixiy jarayonlarga ob'ektiv baho berishda muhim ahamiyatga ega.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

- 
1. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. –Тошкент: Фан, 1991. – Б. 27. (Амир Сеид Алим-хан. История скорби народа Бухары. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 27. Amir Sayyid Alimkhan. The History of the Sorrow of the People of Bukhara. – Tashkent: Fan, 1991. – P. 27.)



2. Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб, 1909. –С. 31. (Logofet D.N. Strana bespravyya. Bukharskoe khanstvo i ego sovremennoe sostoyaniye. -SPb, 1909. -S. 31.)
3. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том 1. –СПб, 1911. – С. 240.
4. Тухтаметов Т.Г. Россия и Бухарский эмират в начале XX века. –Душанбе: Ирфон, 1977. –С. 16. (Tukhtametov T.G. Russia and the Bukhara Emirate in the late 20th century. - Dushanbe: Irfon, 1977. -S. 16.)
5. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. –Б. 27. (Amir Sayyid Olim Khan. The history of the suffering of the people of Bukhara. -B. 27.)
6. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX-нач XX в) материалы к исторической географии Средней Азии. –Ташкент: Университет, 2001. –С. 4.
7. Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и Западный Памир в конце XIX века). –Москва, 1958. –С. 18.
8. Логофет Д.Н. Страна бесправия. –С. 31.
9. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида). –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2014. –Б. 89.
10. Гафуров Б. Г., Прохоров Н. Н. Падение Бухарского эмирата. К 20 летию Советской революции в Бухаре (1920-1940 г.). –Сталинабад, 1940. –С. 9.
11. Кичкилов Ҳ. Термизда инқилоб бўлганми? // “Сурхон тонги” газетаси, 1994 йил 24 май.
12. Сафаров Ш. Термиз ва Термизийлар. –Термиз: Жайхун, 1993. –Б. 50.
13. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 18-фонд, 1-рўйхат, 507-иш, 195-варақ.
14. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 76-фонд, 1-рўйхат, 694- иш, 81-варақ орқаси; 76-фонд, 1-рўйхат, 715-иш, 48-варақ; 76 фонд, 1-рўйхат, 800-иш, 36-варақ.
15. Ражабов Қ., Ҳайитов Ш. Усмон Хўжа. –Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2011. –Б. 11-12.
16. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар // Файзулла Хўжаев ҳаёти ва фаолияти ҳақида янги мулоҳазалар. –Тошкент: Фан, 1997. –Б. 85-92.
17. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2 китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Тошкент, 2000. –Б. 42-43.

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000